

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogik, metadologik, innovatsion fan va ta’limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

2023-yil, oktyabr, №1-son

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*

**TAHRIR HAY'ATI:**

| | | |
|---|---|---|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor | Bosh muharrir |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna | pedagogika fanlari doktori, professor | A'zo |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor | A'zo |
| Babayeva Dono Razzakovna | pedagogika fanlari nomzodi, professor | A'zo |
| Sadikova Shoista Akbarovna | pedagogika fanlari nomzodi, professor | A'zo |
| Jumanova Fotima Uralovna | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent | A'zo |
| Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent | A'zo |
| Bafayev Muxiddin Muxammatovich | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Ne'matov Shuhrat yergashovich | pedagogika fanlari nomzodi | A'zo |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti | A'zo |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) | A'zo |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |

Muassis: **"Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

Hamkorlarimiz: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

# MUNDARIJA

"Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir" .......................... 6
Qirg'zboyev Abdug'affor Karimjonovich
Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari ........ 8
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО ........ 11
Хамдамова Махзуна Турсуновна
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers........ 15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna
Yangi O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ........ 18
Babayeva D. R.
Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o'zaro ta'siri ........ 21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish........ 25
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna
Неполные предложения как объект исследования ........ 28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна
Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida ........ 32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rni........ 36
Raximberganova Munojat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda STEAM ta'lim texnologiyasining ahamiyati ........ 38
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi
Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari........ 41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna,Odiljonova Shoxsanam
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari........ 46
Bafayev Muxiddin Muxammadovich
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и
их влияние на школьную успеваемость учеников........ 50
Ризаев Азизжон Рахимджанович
Maktabgacha ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari ........ 54
Marasulova Dono Nigmatullayevna
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma'naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari........ 59
Matchanov B. O.
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini
shakllantirishning psixologik xususiyatlari........ 63
Muratova Munavvar O'rol qizi
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс........ 67
Нажмиддинова Гулноза Одиловна
Bo'lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari........ 70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi
Методика развития речи дошкольников ........ 74
Очилова Хилола Шералиевна
Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babalarin
çocuk kitaplari seçim kriterlerinin incelenmesi........ 78
Elem Göktaş
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника ........ 87
Равшанова Наргиза Норбоевна
Отешова Гульнур Кабуловна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях ..... 91
Хайдаров Р.
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi ..... 95
Radjapova Zuxra Tirkashevna
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей ..... 100
Садикова Шоиста, Тохирова Шохсанам
Maktabgacha ta'limda yuksalish ..... 104
Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar ..... 106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher ..... 109
Tokhirova Shokhsanam
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari ..... 114
Xo'jamatova X. M.
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni ..... 119
Yakubova Zilola Zikirovna
Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish ..... 122
Mirkasimova Zilola Alisherovna
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash ..... 124
Musratova Zilola Ulugbekovna
Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati ..... 128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdona Shohasan qizi
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari ..... 132
Teshabayeva Zamira Sobirovna
Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati ..... 135
Maxmudova Dilorom Axmadovna
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari ..... 137
Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari ..... 140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators ..... 143
Khalilova Dilnoza Furkatovna
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari ..... 146
Jumanova Fatima Uralovna
Talabalarning kasbiy kompetentliligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi ..... 149
Kamalova Gavhar Akbarovna
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi ..... 152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi ..... 156
Ne'matova G. A.
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari ..... 160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida ..... 163
Yuldasheva Dilnoza
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati ..... 166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Raxmatova Saodat Amrakulovna
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari ..... 172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей............................ 176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.................................................... 182
Asrarxanova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi koʻrsatkichi sifatida ................................................... 186
Jalilova Saboxat Xalilovna
Oʻsmirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili ........................................................................... 191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna
Seminar mashgʻulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli ........................................................................ 196
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna
Shaxs oʻzini oʻzi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati ................................................................................. 199
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy oʻgʻli
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ......................................... 202
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlari .................................................. 205
Nurmatov Nurhayot Nurziytot oʻgʻli
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari........................................................................................................................ 209
Farxodov Fozil Baxrom oʻgʻli, Adizova Gulzoda Mehridinovna
Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО .............................................................................. 212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.
Inklyuziv ta'lim jarayonida oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishning oʻziga xos qirralari.................................................... 215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

# MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA HAYOT XAVFSIZLIGI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Muratova Munavvar O‘rol qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot xavfsizligini ta’minlash mavzusiga qaratilgan bo‘lib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari va bolalarda kuzatilayotgan salbiy psixologik holatlarning oldini olish uchun chora-tadbirlarini ishlab chiqish, oilada, ko‘chada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog xodimlar, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik barcha mas’ul shaxslar xavfsiz shart-sharoitni ta’minlashi lozimligi bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sog‘lom turmush tarzi, psixolog, hamkorlik, ota-ona, pedagog, hayot xavfsizligi, chora-tadbirlar, jismoniy zo‘ravonllik, jinsiy zo‘ravonllik, e’tiborsizlik, muhit, hamkorlik, xavfsizlik qoidalari, ta’lim-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi yondashuv,mahorat.

**Abstract:** The article is aimed at ensuring the safety of life of preschool children and describes the psychological features of the formation of life safety skills in preschool adults and the development of measures to prevent the observed negative psychological states in children, pedagogical staff in the family, Street, preschool educational organizations, parents, neighborhood public all responsible persons should ensure safe conditions.

**Key words:** Healthy lifestyle, psychologist, cooperation, parent, educator, life safety, measures, physical violence, sexual violence, neglect, Environment, Cooperation, safety rules, Education, Initiative, development,collaborative approach, skill.

**Аннотация:** Статья посвящена теме обеспечения безопасности жизнедеятельности дошкольников, психологическим особенностям формирования навыков ОБЖ у старших дошкольников и разработке мер профилактики негативных психологических состояний, наблюдаемых у детей, в семье, на улице. В дошкольных организациях образования установлено, что все ответственные лица, педагогический коллектив, родители, соседи, общественность должны обеспечить безопасные условия.

**Ключевые слова:** Здоровый образ жизни, психолог, сотрудничество, родитель, педагог, безопасность жизнедеятельности, меры, физическое насилие, сексуальное насилие, пренебрежение, окружающая среда, сотрудничество, правила техники безопасности, воспитание, инициатива, развитие,совместный подход, мастерство.

## KIRISH

Maktabgacha ta’lim tashkilotida xavfsiz muhitni yaratish, oilada va uyda bolaning xavfsizligini ta’minlashga yordam berish, maktabgacha yoshdagi bolalarda xavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim faoliyatini tashkil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogdan bolalarni madaniy qadiryatlar bilan tanishtirish qonuniyatlarini anglab yetishi va tushunishni talab qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib, har xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar).

Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari shuni anglatadiki, ular o‘zlarining turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bolishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir haydovchining, shifokorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarinigina emas, balki umuman haydovchilarning, doktorlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

## TADQIQOT METODLARI

Taniqli rus psixologlari L. S. Vigotskiy, D. B. Elkonin, A. N. Leontyev tadqiqotlariga ko'ra bolalarning rivojlanishi, uning shaxsiyatini shakllantirish shartlari va jarayoni haqidagi tushunchalarning ahamiyati saqlanib qolmoqda.

Bolaning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatning eng muhim sohasi bu oila[1]. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari boshlanadi. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirib, nutqni rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklari hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yosh davri shunday bir bosqichki, bu davrda bola xarakter xislatlarning namunalari shakllanib, axloqiy xarakteri yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloqiy me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu davrda bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Shu o'rinda savol tug'ladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mashg'ulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab, (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;
- ikkinchidan, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va sujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi[2]. Demak, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil eta olishiga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir.

## TADQIQOT VA MUHOKAMA

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kundalik hayotida xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha J. J. Russo, M. Montessori, K. D. Usheniskiy, P. D. Yurkevich, P. F. Kapterev, V. A. Suxomlinskiy o'zining qarashlarini bayon qilib o'tgan.

Makatbgacha kata yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san'atni, ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog'lomlarnikidan ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

Maktabgacha yosh davrida bolaning xulq-atvorini kattalarning "mumkin", "mumkin emas", "yaxshi", "yomon" kabi fikrlar boshqaradi. Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbayi sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek,

1 "Madaniy va tarixiy psixologiya" jurnali. 2017-yil. – 4–5-betlar.
2 Z. T. Nishanova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullayeva, M. X. Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – T., 2018. – 251–252-betlar.

kattalarning, ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa, maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bolalikni mustaqil deb tushunishda ijtimoiy va psixologik qiymat, bolalarning zaifligi haqidagi g'oyalar va kattalarning bola farovonligi uchun javobgarligi, aniq ongli choralar sifatida bola xavfsizligini ta'minlash hamda pedagogik g'oyalar shakllanadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalar xavfli vaziyatni yetarli darajada baholash, tanqidiy vaziyatlarga tushib qolish oqibatlarining oldini olish yoki engish uchun jismoniy intellektual imkoniyatlarga ega emaslar. Shuning uchun, xavfsiz hayotga tayyorlikni shakllantirish, bolada mustaqil rivojlantirish, bolalarning tasavvurini va ijodini rag'batlantirish, bolada xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdagi asosiy omil kattalarning shaxsiy namunasidir. Xavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalar bilan ishlash juda muhim o'rin tutadi. Ota-onalarni xavfsizlik madaniyatini tarbiyalash jarayoni bilan bog'liq asosiy tushunchalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari, potentsial xavf toifalari, bolaning hayotida xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojning o'rni va uni ta'minlashda kattalarning roli, jismoniy va psixologik xavfsizlik shartlari bilan tanishtirish kerak. Ota-onalar uchun xavfsizlik madaniyatining o'z darajasini baholashni o'rganish, uni oshirish yo'llarini topish, bolalarni tarbiyalashning samarali taktikasi va usullarini o'zlashtirish, farzandining individual xususiyatlarini aniqlash va kelajakda ularga e'tibor qaratish muhimdir.

## TADQIQOT NATIJALAR

Xavfsizlik ko'nikmalarini tarbiyalash jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadiryatlarni, shu jumladan:

- axloq va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishni;
- bolalarda o'z harakatlarining mustaqilligi, maqsadga muvofiqligi va o'zini o'zi tartibga solishni tarbiyalashni;
- kundalik hayotda, jamiyatda, tabiatda xavfsiz xulq-atvor asoslarini shakllantirishni;
- ijtimoiy va emotsional intellektni, hissiy sezgirlikni, hamdardlikni rivojlantirishni;
- tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatga tayyorlikni shakllantirishni;
- oilasiga va bolalar va kattalar jamoasiga, turli xil mehnat va ijod turlariga hurmat va hissiyotlarni tarbiyalashni o'rgatadi.

Bolalarni o'qitishning mazmuni va usullarini tanlashda muhim omil bu xavf manbalari va bolalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq xavfli vaziyatlarga tushib qolish sabablarini bilishdir.Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Anatomik va fiziologik xususiyatlar: bolalarning bo'yi kichik, shuning uchun ular kichik ko'rish burchagiga, kichik ko'rish maydoniga ega; 7 yoshgacha bolalar tovushning yo'nalishi va manbasini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular ko'zlarini yaqin obyektlardan uzoq obyektlarga va aksincha tarjima qarata olmaydilar.

Xulq-atvoringizni boshqarishda qiyinchiliklar (xatti-harakatlarning impulsivligi): bu o'zboshimchalik bilan tartibga solish, o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajasi bilan bog'liq. Buning natijasida harakatlar ko'pincha hissiyotlar ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Jismoniy faollikning oshishi: impulsiv xatti-harakatlar, hissiyot va qiziqish bilan birgalikda, kattalar tomonidan nazorat qilinmasa, bolalarning xavfli vaziyatlarga tushishiga olib kelishi mumkin.

Qo'rquv hissi: maktabgacha yoshdagi ko'plab muammoli vaziyatlarning sababi; shu bilan birga, "hech narsadan qo'rqmaydigan" bolalar ham, hayoti "qo'rquvga to'lgan" maktabgacha yoshdagi bolalar ham xavf ostida.

Bolaning kattalar bilan muloqotdagi reaksiyalari nisbatan sekinlashadi: masalan, kattalar toifasida vaziyatni idrok etish, uni ko'rib chiqish, qaror qabul qilish va harakat qilish uchun taxminan 0,8 soniya vaqt ketadi; buning uchun bolaga 3–4 soniya kerak bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun diqqatni bir obyektdan ikkinchisiga taqsimlash va almashtirish qiyin, odatda u faqat o'ziga xos harakatlarga qaratilgan; bolalar o'zlari qiziqtirgan tovushlarga javob berishadi.

Bolalar texnogen, tabiiy va ijtimoiy muhitning barcha mumkin bo'lgan xavflarini eslab qolishlari va (yoki) oldindan bilishlari mumkin; bola o'z xatti-harakatlarining mumkin bo'lgan oqibatlarini tushunmaydi va bashorat qilmaydi, potentsial xavfni ko'rmaydi, obyektlarning haqiqiy xususiyatlarini bilmaydi, hayot va o'yin vaziyatlarini ajratmaydi.

Bolada oʻzini oʻzi qadrlash yetishmasligi, ularning imkoniyatlarini qayta baholash: kattalar tomo-nidan notoʻgʻri taʼlim taktikalarini tanlash bilan bogʻliq; ota-onalar bolalarning oʻzini oʻzi qadrlashini shakllantirishga eng muhim taʼsir koʻrsatadi.

Voyaga etish istagi bolaning yangi vazifalarni bajarishga harakat qilishiga, ilgari bajarilgan qoidalarni buzishiga, kattalarning soʻrovlari va izohlariga javob bermasligiga, ularga berilgan va'dalarni bajarmasligiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi koʻnikmalarini rivojlantirish, ularni oʻz sogʻligiga gʻamxoʻrlik qilish, salomatlikka doir qoidalarga amal qilishga, shu bilan birga, sogʻlom fikrlashga oʻrgatadi. Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar garchi ularning mazmun-mohiyatini toʻliq anglamasalar-da, biroq ijtimoiy munosabatlar jarayonida bevosita ishtirok etadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M., Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2021.
2. Безопасность жизнедеятельности: методика обучения, основы национальной безопасности, основы медицинских знаний : учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / Оренбург. гос. пед. ун-т; сост. АкимоваЛ. А., Оренбург : Изд-во ОГПУ, 2008. – 204 с.
3. Виноградова Н. Ф., Дети, взрослые и мир вокруг [Текст] / Н. Ф. Виноградова, К. А. Куликова. – М.: Просвещение, 1993. – 128 с.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

**Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**